



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Toshkent viloyatida
kichik tadbirkorlik
2021- yil yanvar-sentabr**

Dastlabki ma'lumotlar


Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, %da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi **47,8 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **19,5** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **6283** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,7** foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Yashash va ovqatlanishda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **2238** ta, sanoatda **1265** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **791** ta, yashash va ovqatlanishda **541** ta, qurilish **447** ta, tashish va saqlash **171** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Sanoat 19,2



Qurilish 79,0



Investitsiya 39,6



Savdo 83,2



Xizmatlar 69,2



Eksport 24,1



Import 39,2



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

45 153




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

6 283

2021- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, %da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, %da

Savdo

32,2%



Sanoat

20,9%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

12,9%



Qurilish

8,6%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,5%



Tashish va saqlash

3,9%



Axborot va aloqa

1,4%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,6%




Boshqa faoliyat turlari

10,1%



Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. Yanvar-sentabr

■ 2021 y. Yanvar-sentabr

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota – 9,5 %, Qibray – 9,0 %, Toshkent – 6,6 %, O'rta Chirchiq – 6,0 %, Chirchiq - 5,4 %, Bo'stonliq – 5,3 %, Angren - 5,0 % hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2020- y. yanvar-sentabr ■ 2021- y. yanvar-sentabr

Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
2238 ta

Sanoatda
1265 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
791 ta

Yashash va ovqatlanishda
541 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 18,4 birlikni tashkil etdi.



Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*

2020- y.


16,7

2021- y.

19,5

2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 34,9 birlik, Ohangaron shahrida 29,5 birlik, Qibray tumanida 27,9 birlik, Parkent tumanida 24,9 birlik, Nurfashon shahrida 24,7 birlikni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra*


Eng yuqori ko'rsatkich
Zangiota tumani – 34,9 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Toshkent tumani – 19,9 birlik.

Past ko'rsatkich
Chinoz tumani – 12,8 birlik.


2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 34,9 birlik, Ohangaron shahrida 29,5 birlik, Qibray tumanida 27,9 birlik, Parkent tumanida 24,9 birlik, Nurafshon shahrida 24,7 birlikni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-sentabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YAHMdagi ulushi, %da


2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi
47,8 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida **48,9** %).

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da

	Sanoat	Qurilish	Savdo	Investitsiya
Toshkent viloyati	16,4	78,2	79,0	44,7
Nurafshon sh.	24,7	90,2	36,6	13,2
Olmaliq sh.	1,4	19,7	86,0	4,4
Angren sh.	16,6	66,2	73,8	61,3
Bekobod sh.	2,3	98,2	80,0	80,3
Ohangaron sh.	33,8	94,9	91,4	53,5
Chirchiq sh.	19,3	94,8	76,2	20,2
Yangiyo'l sh.	50,7	99,3	93,8	44,4
Oqqo'rg'on t.	47,8	99,9	98,2	77,7
Ohangaron t.	76,9	92,7	93,2	68,8
Bekobod t.	39,2	91,2	95,6	74,5
Bo'stonliq t.	24,2	89,9	60,7	27,5
Bo'ka t.	43,4	99,9	97,2	86,1
Zangiota t.	61,2	100,0	98,5	89,5
Qibray t.	30,4	69,3	70,4	53,3
Quy Chirchiq t.	64,5	84,3	94,7	87,4
Parkent t.	20,7	82,1	87,8	62,6
Piskent t.	98,0	91,7	96,9	57,2
O'rta Chirchiq t.	31,2	100,0	94,8	77,6
Chinoz t.	63,5	98,7	88,9	74,6
Yuqori Chirchiq t.	54,9	100,0	86,4	86,6
Toshkent t.	51,3	88,1	91,9	68,8
Yangiyo'l t.	63,3	99,0	74,0	92,2


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 307,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 21,1 %ini tashkil etdi.




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Parkent (100,0 %), Ohangaron (99,9 %), Quyji Chirchiq (99,7 %), O'rta Chirchiq (97,5 %), Bo'ka (94,7 %), Bekobod (93,9 %) tumanlarida, eng past ko'rsatkich Olmaliq shahrida 0,7 %ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **906,1** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **37,4** %ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bekobod (100,0 %), Parkent (100,0 %), Bo'ka (98,1 %), Yuqori Chirchiq (94,0 %) tumanlarida va Yangiyo'l (94,4 %) shahrida kuzatildi. Eng past ko'rsatkich Bekobod shahrida – 1,3 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9505,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Zangiota tumani (1279,7 mlrd. so'm), Ohangaron shahri (901,7 mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (788,8 mlrd. so'm), Chirchiq shahri (766,8 mlrd. so'm) va Toshkent tumani (743,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Bekobod tumanida (115,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **16,4 %**ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Piskent (98,0 %), Ohangaron (76,9 %), Quyi Chirchiq (64,5 %), Chinoz (63,5 %), Yangiyo'l (63,3 %), Zangiota (61,2 %), Yuqori Chirchiq (54,9 %), Toshkent (51,3 %), Oqqo'rg'on (47,8 %) tumanlari va Yangiyo'l shahri (50,7 %) tashkil etdi. Olmaliq shahrida (1,4 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **13972,9** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **79,0** %ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **18,3** %ga koʻpayishi kuzatildi.


2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota (2579,0 mlrd. soʻm), Qibray (1048,9 mlrd. soʻm) tumanlarida, Olmaliq (1005,7 mlrd. soʻm), Yangiyoʻl (909,0 mlrd. soʻm) Angren (826,1 mlrd. soʻm), Chirchiq (790,7 mlrd. soʻm) shaharlarida qayd etildi.



■ hajmi, mlrd. soʻm ● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 892,4** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **78,2 %**ini tashkil etdi. Oʻsish surʼati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **121,3 %**ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʼati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qibray (692,8 mlrd. soʻm), Yuqori Chirchiq (381,8 mlrd. soʻm), Zangiota (336,8 mlrd. soʻm), Oʻrta Chirchiq (274,7 mlrd. soʻm) tumanlarida va Chirchiq (287,2 mlrd. soʻm) shahrida qayd etildi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 753,4 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **71,6 %**ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **117,2 %**ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Zangiota tumani 911,6 mlrd. soʻm), Chirchiq shahri - 866,7 mlrd. soʻm, Olmaliq shahri - 791,6 mlrd. soʻm), Qibray tumani – 763,6 mlrd. soʻm, Toshkent tumani - 693,2 mlrd. soʻm, Angren shahri - 661,1 mlrd. soʻm va Yangiyoʻl tumani - 595,3 mlrd. soʻm hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, %da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 20,9 %ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 129,1 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 53,0 %ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 115,5 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 90,4 %ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,7 %ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 %ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1812** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 539 tasi (29,7 %) iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1122 ta (61,9 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 151 ta (8,3 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,2 % (167 ta), sanoatda – 18,3 % (331 ta), qurilishda – 7,8 % (142 ta), savdoda – 36,3 % (658 ta), xizmatlar sohasida – 28,4 % (514 ta)ni tashkil etdi.

2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar






Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (207 ta), Qibray (179 ta), Toshkent (127 ta), Chirchiq shahar (127 ta), Angren shahar (114 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 33,1 %ni, sanoatda 30,6 %ni, va savdo sohasida 29,9 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 69,7 %ni, qurilishda 64,8 %ni, savdoda 62,0 %ni tashkil etdi.

2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda 46,3%ni, qurilish sohasida 45,1%ni, savdo sohasida 40,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 63,3%ni, sanoatda 56,8%ni, savdo sohasida 55,5 %ni, tashkil etdi.

